



Aforizmlar lingvistik tadqiqot obyekti
aphorisms are the object of linguistic research

Samiyeva Nilufar Baxtiyorjon qizi

(A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti)

nilufarxonazarova9795@gmail.com

+99894 829 97 95

Anotatsiya: Mazkur maqolada aforizmlarning mohiyati, paydo bo'lishi o'zbek va jahon tilshunosligida o'rganilishi, hamda o'ziga xos struktural-grammatik va funksional-semantik xususiyatlari dalillar asosida tahlil etildi. Shuningdek, tilshunos olimlarning aforizmlar haqidagi qarashlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: aforizmlar, paremiologiya, maqol, matal barqaror birikmalar.

Annotation: In this article, the essence of aphorisms, their emergence in Uzbek and world linguistics, as well as their structural-grammatical and functional-semantic features were analyzed on the basis of evidence. Also, the views of linguists about aphorisms are thoroughly analyzed.

Key words: aphorisms, paremiology, proverb, matal stable compounds.



Tilshunoslik nazariyasida kelib chiqib shuni takidlash joizki, hikmatli soʻzlar (aforizmlar) xalqning maʼnaviy madaniyati, urf-odati, kasbi, turmushi bilan bevosita bogʻliq boʻlib, qisqa, ixcham, maʼno jihatidan salmoqdor birliklar sifatida har bir davr ruhiga mos keladi. Chunki hozirgi mustaqillik, milliy qadriyatlarning tiklanish davri soʻzlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega boʻlgan oʻzbek adabiy tilini chuqur egallashni, fikrni ixcham, asosli, obrazli va taʼsirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Bu esa badiiy nutqda faol qoʻllanuvchi hikmatli soʻzlar (aforizmlar)ning lingvistik tadqiqiga oid ilmiy tadqiqotlarning hozirgi vaqtda dolzarb va muhimligidan dalolat beradi.

Tilshunos olimlar diqqat-eʼtiborini uzoq davrlardan buyon oʻziga jalb etib kelayotgan hikmatli soʻzlar (aforizmlar) koʻproq madaniyatshunoslik, etnografiyaning oʻrganish obyekti boʻlib keldi. Keyingi 40-50 yillar davomida esa hikmatli soʻzlar (aforizmlar)ning lisoniy tabiatini tadqiq etish bilan tilshunoslar ham shugʻullana boshladilar. Oʻzbek tilshunosligida hikmatli soʻzlar (aforizmlar)ni lingvistik nuqtayi nazaridan oʻrganishga bagʻishlangan qator ishlarning yaratilishi buning yorqin dalili boʻla oladi [Bushuy, 1981: 128].

Jahonda ilmiy bilish jarayonining chuqurlashuvi tilshunoslikda zamonaviy yoʻnalishlarning mustaqil soha sifatida taraqqiy etishiga turtki boʻldi, bu esa paramiologik birliklarni rivojlantirish, maxsus oʻrganish masalalari boʻyicha tadqiqotlar qamrovini kengaytirdi. Jahon tilshunosligida aforizmlarga nisbatan tan olingan yagona va mukammal qarashning mavjud emasligi ushbu masala doirasida muntazam bahs-munozaralarga sabab boʻldi. Bu esa aforizmlarni jiddiy oʻrganishni taqozo etadi.

Ammo hozirga qadar oʻzbek tilshunosligida hikmatli soʻzlar (aforizmlar)ning badiiy nutqdagi qoʻllanish xususiyatlari, matn tarkibidagi funksional-semantik va lingvopragmatik imkoniyatlari maxsus oʻrganilmagan. Shuning uchun hikmatli soʻzlar (aforizmlar)ning hozirgi davrda badiiy matnlarda qoʻllanish xususiyatlarini tadqiq etish oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri boʻlib qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda aforizm terminiga koʻplab taʼriflar bor, bu maʼlum bir davr, maʼlum bir davlat va oʻsha davlatning olim-donishmandlari qarashlariga bogʻliq boʻladi. Aforizmlarning vazifaviy xususiyatlari va turlarini tadqiqi shuni koʻrsatadiki, hozirga qadar barcha insoniyat uchun aforizmlarning aniq qabul qilingan taʼrifi va janr chegaralari mavjud emas, har xil koʻrinishdagi tasnifi tartibga keltirilmagan.



Paremiologiya tarkibiga kiruvchi birliklardan yana bir bu-aforizm hisoblanadi. Aforizm – grekcha soʻzdan olingan boʻlib, “*aphorismos*” – qisqa, hikmatli soʻz maʼnolarini anglatadi[H.Homidiy, 1967: 35]. Hikmatli soʻzlarga turli adabiyotlarda turlicha taʼrif berib oʻtilgan:

1. Aforizm - aniq va ixcham ifodalanib, tugal fikrni anglatuvchi hikmatli soʻzlar[H.Homidiy, 1967: 37].

2. Aniq va ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap[A.Hojiyev, 2002: 144]

3. Maʼlum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, maʼnodar, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir[M.Yoʻldoshev, 2006: 54]

Aforizmlar asrlar davomida butun dunyoda odamlarning diqqat markazida boʻlib keldi va eng muhimi, bu qiziqishlar ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida ham shu maqeyini saqlab qoldi. Koʻplab davlatlarda aforizm jadal rivojlanib, oʻzining eng yuqori choʻqqisiga chiqqani ham buni tasdiqlaydi. Oʻtgan davrda ijod qilingan adabiy asarlardagi aforizmlar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar deyarli yoʻq boʻlganiga qaraganda, soʻnggi paytlarda aforizmlar boʻyicha bir qator maʼlumotli, nazariy maqolalar nashr etilmoqda, lingvistik xususiyatga ega tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Oʻzbek tilshunosligida muammoga aloqador qator tadqiqotlar amalga oshirilgan boʻlib, koʻplab qoʻllanmalar va lugʻatlar chop etilgan. A.Hojiyev , N.Mahmudov, A.Poʻlatov, B.Mengliyev, S.Muhamedova, A.Rahimov Sh.Islomov, Sh.Xamroyeva , M. Umarxodjayev, Sh.Shahabitdinova , G.Tojiyeva, L.Raupova, M.Yoʻldoshev , G.Komilova , M.Abjalova kabi olimlarning tadqiqotlarida ham tahlil qilinib, lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqilganda, aforizmlar tarkibi juda keng va ularni turli jihatdan tahlil qilish bilan bogʻliq tadqiqotlar necha asarlar oldin oʻrganilgan va oʻrganilishda davom etmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, aforizmlar har bir xalqning milliy urf-odatlarini hamda anʼanalarini verbal vositalar orqali koʻrsatib beradi. Bu birliklarni qiyosiy oʻrganish xalqlarning oʻziga xosliklari va birlashtiruvchi jihatlarni aniqlashga yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Homidiy H, Abdullayeva Sh, Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlar lug’ati. - Toshkent: O’qituvchii, 1967. – B. 35.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. - Toshkent: Fan, 2002. -144 b
3. Yo’ldosheva M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: FAN, 2006. – 54 b
4. Toshpo‘latov Z. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. : Filol.fanlari nomzodi...diss.avto-ref. –T., 2006. –B.8